



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60420200 – Davlat va jamiyat boshqaruvi
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60420200 – Davlat va jamiyat boshqaruvi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: RAXIMOVA DILFUZA NIGMATOVNA

**O'zbekistan Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat
siyosati va boshqaruvi akademiyasi**

fan doktori (DSc), professor



A'zo: AZAMAT ABDYMOMUNOV

Jahon banki

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260035
Xulosa raqami	1213
Xulosa sanasi	30.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 42-uy. Guvohnoma: MAS № 0000259, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Davlat va jamiyat boshqaruvi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60420200
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000259, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60420200 – Davlat va jamiyat boshqaruvi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60420200 – Public Administration
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60420200 – Государственное и общественное управление
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Davlat va jamiyat boshqaruvi sohasida mutaxassis
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 42-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, ichki me'yoriy hujjatlar hamda ta'lim dasturini boshqarish va sifatni ta'minlashga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim sifatini oshirish va boshqaruv jarayonlarining shaffofligini ta'minlash maqsadida universitetda 8 ta asosiy raqamli platforma joriy etilgani aniqlandi. Jumladan, imtihon jarayonlarini onlayn nazorat qilish, talabalar turar joyini boshqarish hamda avtomatlashtirilgan test tizimi orqali ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha samarali mexanizmlar amaliyotga tatbiq etilgani qayd etildi. Boshqaruv jarayonlarining keng ko'lamda raqamlashtirilgani ta'lim sifatini monitoring qilish, qarorlar qabul qilishning shaffofligini ta'minlash hamda nazorat mexanizmlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim ijobiy amaliyot sifatida baholandi. Shuningdek, ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilmalarning vakolatlari, vazifalari va mas'uliyati aniq belgilanganligi hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlarining amaliyotga joriy etilgani tasdiqlandi. Umuman, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha yaratilgan amaliyot belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida taqdim etilgan ta'lim dasturi, strategik rivojlanish hujjatlari, malaka talablari hamda o'quv-me'yoriy materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida universitet strategiyasida ta'lim muassasasining missiyasi davlat va hududlar uchun bilimli, ilmiy salohiyatli hamda ijtimoiy mas'uliyatli mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar orqali hududiy taraqqiyotga hissa qo'shish sifatida belgilanganligi aniqlandi. Strategik rivojlanish maqsadlarida kompetensiyaga asoslangan raqamli

ta'limni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, ta'lim dasturi mazmunining ushbu strategik maqsadlar bilan uzviy uyg'unlashtirilgani qayd etildi. Davlat va jamiyat boshqaruvi yo'nalishida ta'lim dasturi mazmunining hududiy boshqaruv tizimi ehtiyojlari, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari hamda davlat xizmatiga qo'yilayotgan talablarni inobatga olgan holda shakllantirilgani bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekani aniqlandi. Ta'lim dasturi yakunida bitiruvchiga "Davlat va jamiyat boshqaruvi sohasida mutaxassis" kvalifikatsiyasi berilishi uning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur kompetensiyalarga ega bo'lishini ta'minlashi qayd etildi. Umuman, ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi va strategik rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unligi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida taqdim etilgan o'quv rejalari, fan dasturlari (sillabuslar), baholash tizimiga oid me'yoriy hujjatlar hamda o'quv jarayonini tashkil etishga doir materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida o'quv dasturlarida fan mavzulari, mustaqil ta'lim topshiriqlari va baholash elementlari tizimli ravishda shakllantirilgani hamda ularga ish beruvchilar tomonidan talab etilgan kasbiy kompetensiyalar integratsiya qilingani aniqlandi. Ta'lim dasturida bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvini tezlashtirish, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda xalqaro ilmiy va o'quv adabiyotlaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan yo'nalishlar aniq natija indikatorlari va mas'ul ijrochilar bilan belgilanganligi qayd etildi. Ish beruvchilar ehtiyojlarining bevosita o'quv dasturlari mazmuniga kiritilgani ta'lim dasturining amaliy yo'naltirilganligini oshirish va bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga tez moslashishini ta'minlovchi muhim ijobiy omil sifatida baholandi. Shuningdek, o'quv natijalarini baholash mezonlarining shaffofligi va xolisligi ta'minlangani aniqlandi. Umuman, o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar hamda talabalar faoliyatini tashkil etishga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ish beruvchilar tomonidan taqdim etilgan rasmiy xatlarda Surxondaryo viloyatida davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, hududiy boshqaruv organlari samaradorligini oshirish hamda zamonaviy bilim va

kasbiy kompetensiyalarga ega mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj asoslab berilgani aniqlandi. Mazkur murojaatlarda 60420200 – "Davlat va jamiyat boshqaruvi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha har biri 25 nafar talaba qabul qilish kvotasini shakllantirish zarurligi ko'rsatilgani qayd etildi. Qabul hajmining ish beruvchilarning hujjatlashtirilgan ehtiyojlari asosida belgilanishi ta'lim dasturining mehnat bozori talablariga mosligini ta'minlovchi muhim ijobiy amaliyot sifatida baholandi. Shuningdek, qabul jarayonlari raqamli platformalar orqali ochiq va shaffof tashkil etilgani hamda talabalarni akademik, ijtimoiy va kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amaliyotga joriy etilgani aniqlandi. Umuman, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar hamda inson resurslarini shakllantirish va boshqarish tizimiga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 60420200 – "Davlat va jamiyat boshqaruvi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kafedrada jami 25 ta shtat birligi mavjudligi, ulardan 16 nafari, ya'ni 64 foizi asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilardan iborat ekani aniqlandi. Mazkur ko'rsatkich amaldagi akkreditatsiya mezonlari talablariga muvofiq ekani qayd etildi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida malaka oshirish, qayta tayyorlash hamda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlarining amaliyotga joriy etilgani tasdiqlandi. Davlat va jamiyat boshqaruvi yo'nalishida amaliy boshqaruv tajribasiga ega mutaxassislarni ta'lim jarayoniga jalb etish bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirishda muhim omil ekani ta'kidlandi. Shu bilan birga, ta'lim dasturining barqarorligini yanada mustahkamlash maqsadida asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish tavsiya etildi. Umuman, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti hamda ta'lim jarayonini resurslar bilan ta'minlashga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida universitetda 66 ta o'quv auditoriyasi, 31 ta amaliy va seminar mashg'ulotlari xonasi, 4 ta Axborot-resurs markazi hamda 565 o'rinli elektron kutubxona va

kompyuterlardan foydalanish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. O'quv binolarining inventar ro'yxatida zamonaviy televizorlar, elektron minbarlar, videokameralar, interaktiv sensor panellar va proyektorlar mavjudligi ta'lim jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratilganini tasdiqladi. Auditoriyalar fondi hamda raqamli texnik vositalarning talabalar kontingentiga mutanosibligi ta'lim sifatini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ijobiy omil sifatida baholandi. Shuningdek, davlat va jamiyat boshqaruvi yo'nalishida huquqiy-me'yoriy hujjatlar, davlat boshqaruviga oid axborot tizimlari va elektron ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etildi. Umuman, moddiy-texnik baza va axborot-resurs ta'minoti belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushini (64 %) izchil oshirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatini kengaytirish tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushini oshirish va amaliy boshqaruv tajribasiga ega mutaxassislarni jalb etish.
- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar bazalariga kirishni kengaytirish.
- ✓ Ish beruvchi davlat organlari bilan amaliyot hamkorligini rivojlantirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Termiz davlat universiteti"da 60420200 – "Davlat va jamiyat boshqaruvi" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar,

o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy va institutsional asoslar shakllantirilgani, universitetda ta'lim sifatini boshqarish va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiluvchi raqamli platformalar amaliyotga joriy etilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi universitetning strategik rivojlanish maqsadlari va hududiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi missiyasi bilan uyg'un holda ishlab chiqilgani, o'quv dasturlariga ish beruvchilar tomonidan talab etilgan kasbiy kompetensiyalar integratsiya qilingani hamda ish beruvchilarning hujjatlashtirilgan ehtiyojlari asosida qabul parametrlarining shakllantirilgani qayd etildi. Professor-o'qituvchilar tarkibi belgilangan akkreditatsiya talablari darajasida shakllantirilgan bo'lib, kafedradagi asosiy shtatdagi pedagoglar ulushi me'yoriy talablarga mos ekani tasdiqlandi. Shuningdek, ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur o'quv auditoriyalari, amaliy mashg'ulotlar xonalari, Axborot-resurs markazlari, elektron kutubxona hamda zamonaviy raqamli infratuzilmaning mavjudligi aniqlandi. Barcha baholash yo'nalishlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, asosan uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega ekani qayd etildi. Umuman, ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlari bo'yicha belgilangan talablarni qanoatlantirishi tasdiqlandi va dastur akkreditatsiya talablari bo'yicha MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

